

## ADABIYOT VA TARJIMA O'RTASIDAGI UYG'UNLIK

**Anvarjonova Shaxrizoda Shavkatjon qizi**  
O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiyot va tarjima o'rtasidagi uyg'unlik lingvistik va badiiy jarayonlar doirasida tahlil qilinadi. Unda adabiyot o'qitishning o'quvchilarda matnni ongli idrok etish, tilni chuqur anglash hamda tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shvetsiya, Germaniya va Italiya ta'lim tizimlari misolida adabiyot va tarjima o'qitishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yozma va og'zaki tarjimaning turlari, ularning lingvistik xususiyatlari hamda nasr tarjimasining mazmun, uslub va badiiylikni saqlashdagi roli qisqacha bayon etiladi. Natijada, adabiyot va tarjima jarayonlari o'quvchilarning til va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi o'zaro bog'liq omillar sifatida asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, tarjima, lingvistika, yozma tarjima, og'zaki tarjima, nasr tarjimasasi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается взаимосвязь литературы и перевода в контексте лингвистических и художественных процессов. Освещается роль преподавания литературы в развитии у учащихся навыков осознанного восприятия текста, глубокого понимания языка и переводческих умений. На примере образовательных систем Швеции, Германии и Италии анализируются особенности преподавания литературы и перевода. Также кратко описываются виды письменного и устного перевода, их лингвистические особенности, а также роль перевода прозы в сохранении содержания, стиля и художественной ценности текста. В результате обосновывается, что литература и перевод являются взаимосвязанными факторами, способствующими развитию языковой и коммуникативной компетенции учащихся.

**Ключевые слова:** литература, перевод, лингвистика, письменный перевод, устный перевод, перевод прозы.

**Abstract.** This article examines the interconnection between literature and translation within the framework of linguistic and artistic processes. It highlights the role of literature teaching in developing students' conscious text comprehension, deep language understanding, and translation skills. The educational practices of Sweden, Germany, and Italy are analyzed to demonstrate the specific features of teaching literature and translation. The paper also briefly outlines the types of written and oral translation, their linguistic characteristics, and the role of prose translation in preserving meaning, style, and artistic value. The study concludes that literature and translation are interrelated factors that contribute to the development of students' linguistic and communicative competence.

**Keywords:** literature, translation, linguistics, written translation, oral translation, prose translation.

**Kirish.** Adabiyot va tarjima o'rtasidagi uyg'unlik mavzusi lingvistik va badiiy jarayonlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Adabiyot o'quvchilarda matnga nisbatan ongli va shaxsiy javobni shakllantirishni talab qiladi, bu esa tarjimaning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, ona tili bo'lmagan o'quvchilar

uchun adabiy matnlar ko'pincha tarjima jarayoni bilan cheklanib qoladi, natijada ular matn mazmunini chuqur idrok etishdan ko'ra, alohida birliklarni tarjima qilish bilan band bo'ladilar

**Tahlil va muhokama.** Adabiyot o'qitishning turli davlatlardagi amaliyoti va dunyo nuqtai nazari tarjima o'qitish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarning tilga bo'lgan tushunishi, badiiy va madaniy mazmunni idrok etishi tarjima jarayoni orqali yanada boyitiladi. "Agar bugungi jamiyatda Shekspir asaridagi kabi yetti asr davomida insonga rollar berilganligi haqiqat bo'lsa, 'noligan maktab o'quvchisi' roli, shubhasiz, uzoqroq va uzoqroq davom etadi. Shvetsiyada hozirgi o'quv dasturlaridagi yangiliklar o'quvchilarning maktabda o'tkazish vaqtiga ta'sir qiladi. 1992 yildan keyin shved o'smirlarining 90 foizdan ortig'i o'n sakkiz yoki o'n to'qqiz yoshga to'lguncha yuqori o'rta maktabda o'qishini kutishimiz mumkin."— Torborg Norman, Hvitfeldtska Gymnasiet, Göteborg va Göteborg universiteti, Ta'lim va ta'lim tadqiqotlari departamenti [ 1,20-b. ].

Shvetsiyada ingliz tilida adabiyot o'qitish o'quvchilarning badiiy matnlarni tahlil qilish va lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. 1980-yilda majburiy boshlang'ich va o'rta maktablar uchun, 1991-yilda esa gimnaziyalar uchun yangi o'quv dasturlari joriy etilgan. Ingliz tili to'rtinchi sinfdan boshlab o'qitiladi va o'n olti yoshgacha majburiy fan hisoblanadi, biroq o'quvchilarning taxminan 65 foizi ikki yillik, 35 foizi esa uch-to'rt yillik gimnaziyada ta'limni davom ettiradi. 1992-yildan so'ng shved o'smirlarning 90 foizdan ortig'i yuqori o'rta maktabda o'qishi kutiladi. Darslarda tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari rivojlantirilib, ayniqsa og'zaki nutqqa e'tibor qaratiladi

Germaniyada (nemis ta'lim tizimida) ingliz tilida adabiyot o'qitish metodlari haqida ma'lumot beradi. O'rtacha, gimnaziyaning ilg'or darajasidagi odatiy ingliz tili darsida 18 dan 24 gacha o'quvchi bor. Birinchi semestr kirish semestri sifatida mo'ljallangan bo'lib, undan so'ng o'quvchilar maktabning oxirgi 2 yilida Leistungskurs (haftada besh yoki oltita 45 daqiqalik dars, odatda o'qituvchilarning mavjudligiga qarab 14 soatlik mashg'ulotlar sifatida beriladi) yoki boshlang'ich darajadagi Grundkurs (haftada uchta dars, ulardan ikkitasi ko'pincha bitta 90 daqiqalik mashg'ulot sifatida ham beriladi) ni tanlashni hal qiladilar. [2.28-b. ].

"Italiyada maktabda ham, universitet darajasida ham ingliz tili o'rganiladigan asosiy xorijiy til hisoblanadi. Italiya ta'lim tizimi markazlashtirilgan tarzda tashkil etilgan. O'qituvchilar o'z kurslarini rejalashtirishda nashr etilgan Ministeriale dasturidan turli darajalarda foydalanadilar. Scuola Media Superiore darajasida tizim diversifikatsiya qilinadi va o'quvchilar turli xil maktab turlaridan birini tanlashlari mumkin" (Italiya ta'lim tizimida ingliz adabiyotini o'qitish Roza Anna Rizzo Liceo Scientifico Niccolo Macchiavelli va Britaniya Kengashida. Milan, Italiya) [3. 34-b.].

Italiyada ingliz tili maktablarda asosiy xorijiy til sifatida o'qitiladi va ta'lim tizimi markazlashtirilgan, lekin darslik va metodlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilmaydi. O'qituvchilar kurslarini mustaqil rejalashtiradi, natijada maktab ichidagi sifat va uyg'unlik o'qituvchilarning tajribasi va fidoyiligiga bog'liq. Scuola Media Superiore bosqichida esa o'quvchilar turli xil yo'nalishlardan birini tanlab, ingliz tilini chuqur o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Har uchala davlatda adabiyot o'qitish tilni chuqur tushunish va matnlarni tahlil qilish orqali tarjima qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa nafaqat so'zlarni o'zgartirish, balki matnning ma'nosi, uslubi va kontekstini tushunishni ham o'z ichiga oladi.

Savodxonlik va tildan foydalanish nuqtai nazaridan "Til va adabiyot darslarida bunday masalalarga ochiq fikr bilan yondashish va birinchi navbatda, yuqorida ta'kidlanganidek, adabiy va adabiy bo'lmagan matnlarni yonma-yon qo'yish orqali tilni o'rganishdan olinadigan foydalardan foydalanish kerak." [4.124-b.]

"Muayyan matnlarning adabiyligi nima degan savol murakkab va muammoli. Javob asosiy sotsiologik bo'lishi mumkin va o'quvchining matnga nisbatan qabul qilgan munosabatiga bog'liq... Biroq, tilning qo'llanilish uslubidagi farqlar sezilarli, garchi bunday farqlar 'ha'/yo'q' qarorlari holatidan ko'ra adabiylik gradienti yoki kontinual bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan (Carter va Nash, 1983)." [5.124-b.]

Tarjima va og'zaki tarjima lingvistik jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq, lekin ular odatda turli mutaxassislar tomonidan bajariladi. Adabiyot va tarjima o'qitish jarayoni o'quvchilarda tilni chuqur tushunish, matn mazmunini idrok etish va madaniy kontekstni anglashi uchun muhimdir. Tarjima ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi: yozma va og'zaki. Yozma tarjimada matn manbasi ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida yozma ravishda maqsadli tilga o'tkaziladi, bu esa asosan nashr etish yoki rasmiy hujjatlarda qo'llaniladi. Og'zaki tarjimada esa nutq mazmuni lug'at, grammatika va intonatsiya orqali yetkaziladi, bunda sinxron tarjima eng murakkab turi bo'lib, ma'ruzachining nutqi davomida tarjimon uni real vaqtda yetkazadi. Shu tarzda, adabiyot darslari va tarjima jarayoni bir-birini to'ldirib, til bilimini va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantiradi.

"Interpreting and translation bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikkita lingvistik fandır. Shunga qaramay, ular kamdan-kam hollarda bir xil odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Yozma tarjima – matn manbasining shaklidan qat'i nazar ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida yozma ravishda bajariladigan tarjima. Og'zaki tarjima – bu matn manbasining shaklidan qat'i nazar, ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida og'zaki ravishda bajariladigan tarjima. Og'zaki tarjimaning ikkita asosiy turi mavjud: sinxron va ketma-ket." [[6.18-b.]

Tarjima jarayoni . "bitta tildagi matnning tasvirini ikkinchi tildagi ekvivalent matnning tasviri bilan almashtirish"[7. 20--b.]. Demak manba tili matni semantik tasvirga tahlil qilinadi, keyin esa bu semantik tasvir maqsadli tilga moslashtiriladi. Shu tarzda, tarjima nafaqat so'zlarni o'zgartirish, balki matnning ma'nosi, uslubi va xarakterni saqlash orqali tilni chuqur tushunishni va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, adabiyot va tarjima o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi muhim jarayonlar hisoblanadi. Adabiyot o'quvchilarda matni chuqur anglash, badiiy tafakkur va madaniy dunyoqarashni shakllantirsa, tarjima ushbu bilimlarni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, adabiyot o'qitish orqali o'quvchilarning tarjima ko'nikmalari, tilni tushunish darajasi va kommunikativ kompetensiyasi samarali rivojlanadi. Shuningdek, tarjima jarayoni nafaqat til birliklarini almashtirish, balki matn mazmuni, uslubi va kontekstini to'liq yetkazishni talab qiluvchi murakkab jarayon ekanligi aniqlanadi. Shu sababli, adabiyot va tarjimini uyg'un holda o'qitish zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Teaching literature a world respective. Christofer Brumfit and Benton 20-b.
2. Literature and language teaching Christofer Brumfit and Carter 124-bet.
3. Written translation Khushnuda Sagimova va Davron Olimov 18-bet.
4. Translation and translating Roger T. Bell 20-bet.
5. Translation of special texts Khushnuda Sagimova va Anorkhon Akhmedova 18-bet.